

IX-ASR KRUM DAVRIDA BOLGAR PODSHOLIGINING SIYOSIY YUKSALISHI VA BOLQON YARIMOROLIDAGI GEGIMONLIK.

Toshkent shahar Bektemir tumani 337-Maktab Tarix
fani o'qituvchisi
Nazirov Maxmudjon Xasanjon o'g'li

Annotatsiya: IX-asrda Bolgar podsholigining ichki nizolardan olib chiqib Bolqon yarimorolida ustinlikka erishtirgan va Vizantiya imperiyasi ustidan g'alabalarga erishgan Krum davrida bolgarlarning siyosiy yuksalishi qonun chiqaruvchi, slavyan va bolgarlarning o'zaro birlashuv davlatini tashkil etgan keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Pliska, Konstantinopol, Pannoniya, Avarlar, Karpat, Adrianopol, Franklar, Karolinglar, Asparux, proto-bolgar, slavyan.

VIII-asr oxirilarida Bolgar podsholigi tinimsiz kurashlar iskanjasida qolgan edi. 803-814 yillarda esa Bolgar podshohlik taxtiga Krum keladi. Krum Bolgarlarning birinchi qonun chiqaruvchi podshosi sifatida tarixda qolgan. Krum avarlar bilan urushlarda g'olib bo'lganidan keyin Pliskaga yo'l oladi. Bu vaqtida kelib ikkita bolgar podsholigini birlashtirib Tisa va Savadan Qora dengiz sohillarigacha cho'zilgan buyuk Bolgar podsholigi tashkil etadi. 809-yil bahorida Krum Vizantiya imperiyasiga qarshi xavfli yurish qilib o'z g'alabasini mustahkamladi. Mart oyida Krum to'satdan Sardika oldida paydo bo'ldi. Qo'rg'onlarning kuchli bo'lishiga qaramay hiyla orqali qal'aga kirishga muvaffaq bo'ldi. Qal'aning 600 kishilik otryadi tinch aholi bilan birga qirg'in qilindi va qal'a buzib tashlandi. Imperator Nikefor urushga tayyorgarligi uzoq davom etib, butun imperiya bo'ylab qo'shinlar to'plagan. Shuning uchun Kichik Osiyodagi qo'shinlarini ham birlashtirdi. 811-yil may oyida imperatorning o'zi va o'g'li Stavrakiy boshchiligidagi katta qo'shin Konstantinopoldan Bolgarlarga qarshi kurashga yo'l oldi. Iyul oyida imperator qo'shinlari Bolgar podshohligiga bostirib kirdi va to'g'ridan-to'g'ri Pliskaga yo'l oldi. Krum ulardan oldinda 20-iyul kuni Bolgar poytaxtiga yetib keldi. Nikefor shafqatsizlik bilan butun shaharni vayron qildi shahar olov ichida qoldi va Nikefor Bolgariya xazinasini o'zining mulki sifatida e'tirof etdi. Bu mag'lubiyatlardan keyin Krum tushkunlikka tushdi lekin Nikeforning ehtiyyotsizligi unga imkoniyat berdi. Bolgar qo'shinlari tog'larga qochib ketishdi va Nikefor ularning ketidan

quvib yetmoqchi bo'ldi. 24-iyul payshanba kuni imperator qo'shini tor tog' darasida qurshovda qoldi va bolgarlar tezda daraning har ikki tomonida yog'och palisad qurdilar va ularni o'rab oldilar. Imperator va deyarli barcha harbiy boshliqlar va oliy martabali shaxslar halok bo'ldi. Imperator kuyovi Mixael bir necha armiya qoldiqlari bilan qochishga ulgurib Adrianopolga yo'l oldi. Vizantiya imperiyasi bu mag'lubiyatni unitmas Bolgarlar esa bu tarixiy g'alabani uzoq asrlar eslab yurishar edilar. Asparuxon ham, Tervel ham bunga erishmagan. Bu g'alabadan keyin Bolgar podsholigi o'z mamlakati mustaqilligi uchun kurashishga hojat qolmadi, balki u bosib olish va qo'shib olish uchun kurashishi mumkin edi. 812-yil bahorida Krum janubdag'i qirg'oq yo'lini boshqaradigan Burgas ko'rfazidagi gavjum shahar Develt qal'asiga hujum qilib egallab olishga erishdi. 812-yil sentyabr oyida uning Bolgar podshosi Krum Vizantiyaga elchi qilib Dargomirni yubordi. Rasmiy bolgar doiralarida paydo bo'lgan bиринчи slavyan imperator huzuriga kelib, 716-yilgi shartnomani ya'ni Tervel va Teodosiy III o'rtasida tuzilgan shartnomani yangilashni talab qildi. Bolgar podsholigi Mileona viloyatidagi chegarani tiklashi va charm-kiyim kechaklardan 30 funt o'lpon olishi kerak edi; mahbuslar va qochqinlar qaytarilishi va savdo aloqalari qayta tiklashi kerakligi aytib o'tildi. Bolgar podshosi Krum imperator agar tinchlik tuzishdan bosh tortsa, Mesemvriyaga hujum qilishini aytib o'tishini takidlaydi. Vizantiya imperatori bu shartlarni qabul qilmasdan rad javobini berdi. Bunga javoban Bolgar podshosi Krum oktyabr oyining o'rtalarida Mesemvriyaga katta qo'shin bilan yetib keldi. Mesemvriya butun janubi-sharqi Yevropadagi eng boy va eng muhim shaharlardan biri edi. U Sharqiy Bolgariyadan mahsulotlarni tashish uchun, shuningdek, Konstantinopoldan Dunay va Qora dengizning shimoliy qirg'oqlariga kelayotgan barcha kemalarni to'xtatish uchun ajoyib savdo markazi va porti bo'lgan. G'alabani taminlagan omillardan yana biri Isauriya sulolasining imperatori dengiz qurollarini tejashi va bu vaqtda imperator floti deyarli mavjud emas edi. Qolaversa Krum bilan birga yurgan muhandislar ham unga katta yordam ko'rsatishdi va to'rt kundan so'ng, Mesemvriyaning Krum tomonida bosib olinishiga olib keldi. Vizantiya imperatori bu sharmandali falokat uchun qasos olish ekspeditsiyani rejalashtirishga majbur edi. Iyun oyining boshida Krum chegarani kesib o'tdi va ikki qo'shin Versinisiyada yuzma-yuz keldi. Ma'lumot o'rnidan imperator Mixael qo'shini Bolgar podshosi qo'shinidan 10 barabar ko'p edi va ochiq jangda uning qo'li baland kelar edi lekin u taktik reja va jangni qo'ldan boy berdi. Vizantiya imperatori Mixael 22-iyun kuni Jon Aplakis (imperator qo'shining chap qanotida Frakiya va Makedoniya qo'shinlariga mas'ul bo'lgan) bolgarlarga qarshi hujumga

o'tdi. Bolgarlar uning hujumidan sarosimaga tushib orqaga chekina boshladilar lekin keyin to'satdan uning yolg'iz jang bo'linmasi bilan jang qilayotgani payqagan Krum tez orada vaziyatni o'z foydasiga xal etishga kirishdi. Shunday vaziyatda Bolgarlarga qarshi urushda yaxshi harakat qilayotgan Anatoliya qo'shin qo'mondoni Leo o'zining xiyonotkor siyosati bilan Mixaeldan imperatorlik tojini olib urushni davom ettiradi. Bolgar podshosi Krum tavakkal qadam tashlab, ochiq hududda ustun bo'lgan dushman qo'shinlariga qarshi shiddatli jangga kirishdi. Krum shu bilan birga bolgar qo'shinlarini ikki qismga birinchi qismini Adrianopolni qamal qilish uchun qoldirib, o'z qo'shinlari bilan imperator poytaxti tomon yo'l olib 17-iyulda bolgarlar shahar devorlariga yetib keldi. Kuchli mudofaa devorlari bilan o'ralgan Vizantiya poytuxtini Krum bir necha bor qamal qilib shaharni egallahsga kirishgan. Konstantinopol aholisi Krumning kuch-quvvatidan ancha tashvishda edilar qolaversa unga yangi laqab "yangi Senaxerib" deya murojaat qilar edilar. Vizantiya imperatori muqarrar xalokatdan imperiyani saqlab qolish uchun diplomatik aloqalarni tiklashga kirishdi. Leo Krumning harakatlariga javoban ikki monarxning Oltin shox qirg'og'ida uchrashuv o'tkazishni taklif qildi. Krum rozi bo'ldi. Ertasi kuni uchrashuvda hiyla ishlatildi va bundan ko'zlangan maqsad Bolgar podshosini o'ldirish edi lekin Krum qochishga erishdi. Bolgar podshosi Krum keyingi bir necha kunda Vizantiya imperiyasidan qasos oldi. Shaharning butun atrofi, nafaqat devorlarga yaqin, balki Oltin Shoxning narigi tomonidagi va Bosforning Yevropa qirg'og'idagi cherkovlar, monastirlar va ajoyib villalar bilan mashhur bo'lgan boy shahar va qishloqlar ham talon-taroj etib vayron qilindi. Bolgarlar Daonin, Redesto, Apria qal'alarini yer bilan yakson qildilar. Shundan so'ng janubga, G'aniya qirlariga bolgar qo'shini yurishi davom etdi. Keyin, Krum shimolga, Adrianopolga (Edirne) yurishni davom ettirdi. Bolgar podshosi shiddatlik zARBALARI qolaversa shaharning oziq-ovqat yetishmasligi ularni taslim bo'lishga olib keldi. Leo diplomatik yordam so'rab 814- yilda Franklar imperiyasiga murojat qiladi lekin ulardan yordam ololmagan imperator Pannonyada ulkan qo'shin to'playotgan Bolgar podshosi Krumning Konstantinopolga yurishdan tashvishda edi. 814-yil 13 aprel kuni bo'lib o'tgan voqeа Vizantiyani muqarrar halokatdan saqlab qoldi va o'sha kuni Bolgar podshosi Krum to'satdan Konstantinopolga yurish paytida vafot etdi.

Krum Birinchi Bolgariya podsholi tarixini o'zgartirdi. Uning birinchi yutug'i Pannonya va Bolqon bolgarlarining birlashishi ikkala qabilaga ham yangi hayot baxsh etdi. Va keyin u jangda ikki imperatorni o'ldirish va uchinchisining qulashiga sababchi bo'lib bu bolgarlar tarixidan muhim o'rIN egalladi. Krum o'z podsholigini mustahkamlashdan avval

avarlarni mag‘lub etgandan so‘ng, avar asirlaridan imperiyaning qulashi sabablarini so‘radi. Ular o‘z imperiyalarini turli sabablarga ko‘ra: hasad va bir-birlarini ayblash, o‘g‘riliklar va sudyalar o‘rtasidagi til biriktirish, ichkilikbozlik, poraxo‘rlik, tijorat ishlarida insofsizlik, sud ishlariga ishtiyoyq vaadolat mezonlarini yo‘qligini aytishdi. Krum bu javobdan Bolgar podsholigida bunday jinoyatlarning oldini olish uchun qonunlarni qabul qildi: birinchi navbatda, bir kishi boshqa bir jinoyatda ayblansa, sud jarayoni bo‘lishidan oldin ayiblanuvchi so‘roq qilish kerak edi va agar u ayibdor bo‘lsa jazolanishi yoki aksi bo‘lsa ozod etilishi kerak edi; ikkinchidan, o‘g‘rilarga mehmondo‘stlik qilish uchun egasining barcha mol- mulki musodara qilinib, o‘g‘rilarning suyaklari sinishi kerak edi; uchinchidan, barcha uzumlar yo‘q qilindi bunga sabab ichkilikbozlik va nihoyat, odamlar mollarini musodara qilish jazosi ostida poraxo‘rlik, tijorat ishlarida insofsizlikka, qarshi kurashib xalq va muhtojlarga yordam berishlari kerak edi. Bolgar podshosi Krum chiqargan barcha qonunlar o‘z xalqi uchun muhim ahamiyatga ega edi va podsholikning yuksalishiga olib keldi. Krum aristokratiyani tashkil etgan bolgarlardan farqli o‘laroq, slavyan fuqarolarini rag‘batlantirish siyosatini davom ettirdi. Krum islohotlari xususan ma‘muriy islohotlar, asosan slavyanlar yashaydigan hududlarning Bolgar podsholigiga qo‘shilishi proto-bolgar etnosining slavyanlar tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonini tezlashtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Литаврин Г.Г. Борьба болгарского народа против византийского ига (XI– XII вв.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. М., 1954 С. 100.
2. Литаврин Г.Г. Болгария и Византия в XI–XII вв. М., 1960. С. 450.
3. Литаврин Г.Г. Болгарские земли под византийским владычеством (1018– 1186) // Краткая история Болгарии. С древнейших времен до наших дней. М., 1987. С. 101– 119.
4. Златарски В. История на Българската държава през средните векове. Монография. — София: Захарий Стояно: Св. Климент Охридский, 2007. — (Българско историческо наследство). С. 200.
5. Горянов Б.Т. Борьба болгарского народа против византийского ига // История Болгарии. Т. 1. М., 1954. С 107–122
6. Державин, Н. С. История Болгарии: Болгария времен Первого и Второго царств (679-1393). — Изд-во Академии наук СССР, 1946. 650 Ст.